$$n_1 = n_0 e^{-\frac{F}{kT} h_1} \quad (2) \text{ va } n_2 = n_0 e^{-\frac{F}{kT} h_2} . \text{ Bu ifodalarni hadma-had}$$

bo'lib, logarifmlaymiz $\ln \frac{n_1}{n_2} = -\frac{F}{kT} (h_1 - h_2) = \frac{F}{kT} \Delta h$, chun-



ki $h_2 - h_1 = \Delta h = 1m$. Masala shartiga ko'ra $\ln \frac{n_1}{n_2} = \ln e = 1$ bo'lgani uchun $F = \frac{kT}{\Delta h} = 4,14 \cdot 10^{-21} N$.

10. Masalaning yechimi. Odam organizmiga asosiy ta'sir qiluvchi neytronlar bo'lib ular organizmdagi natriy va fosfor bilan reaksiyalarga kirishib, katta zarar yetkazadi, ya'ni noturg'un izotoplari hosil qiladi:



11. Masalaning yechimi. 1 P nurlanishda 1 sm hajmda 1sm³ hajmda $N=2,083 \cdot 10^9$ ta ionlar jufti hosil bo'ladi va bunda har bir juft ion uchun $W_0=34$ eV energiya sarf bo'ladi. U holda $D=20$ P nurlarning energiyasini quyidagicha yozish mumkin: $W=DNW_0$, son qiymatlarni qo'yib hisoblasak, $W=141,64 \cdot 10^4$ MeV/sm³.



TALAB, TAKLIF VA TAHLIL

TEKISLIKDAGI KOMBINATORIKA

Sh.Ismailov, J.Saparboyev, Nizomiy nomidagi TDPU

Maqolada kombinator geometriyaning ayrim masalalari yechimlari bilan keltirilgan.

Tayanch soʻzlar: kombinator geometriya, masalalar, yechimlar.

В статье рассматриваются некоторые задачи комбинаторной геометрии вместе с решениями.

Ключевые слова: комбинаторная геометрия, задачи, решения.

In the paper the some problems of combinatorial geometry with solutions are considered.

Keywords: combinatorial geometry, problems, solutions.

O'quvchilarda matematikaga bo'lgan qiziqishlarini orttirish, tayanch kompetentsiyalarni shakllantirish uchun ta'lim jarayoni-da amaliy va nostandart xarakterdagi masalalardan foydalanmasdan bo'lmaydi. Bunday masalalarni yechish o'quvchilarda analiz, sintez, analogiya, umumlashtirish, deduktsiya va induktsiya kabi mantiqiy mushohada yuritish faoliyatini, intuitsiya, egiluvchanlik va moslashuvchanlik kabi fazilatlarni rivojlantirib, o'quvchilarni olingan natijalar ustida tanqidiy fikrlashga o'rgatadi. Ko'pincha nostandart xarakterdagi masalalari yechimi darhol topilmasdan, bir necha bor urinishlar natijasidagina aniqlanishi sababli, bu maqsadga erishish uchun tirishqoq bo'lishlikni, ya'ni shaxsning irodalilik kabi juda ahamiyatli sifatлари tarkib topishiga imkon beradi. Eng asosiysi esa: bunday masalalarni yechilishi o'quvchilarga natijaga erishilganlik bilan, shuningdek yechim yo'lining go'zalligi va an'anaviy emasligi bilan bog'liq bo'lgan emotional zavq berilishi katta ahamiyatga ega. Quyida biz nisbatan yangi



bo'lgan yo'nalish – kombinator geometriya masalalaridan namunalarni keltirmoqdamiz.

1. Tekislikda n ta nuqta shunday joylashganki, ulardan hech qaysi uchta bitta to'g'ri chiziqda yotmaydi. Shu nuqtalarning turli juftliklaridan jami bo'lib nechta to'g'ri chiziqlar o'tadi?

Yechilishi. Masala shartini qanoatlantiradigan nuqtalarni $A_1, \dots, A_n$ deb belgilaymiz. Bunday nuqtalar mavjud, misol tariqasida bitta aylana yotgan n ta nuqtani olishimiz mumkin. A_1 nuqtani qolgan nuqtalar bilan $n - 1$ ta to'g'ri chiziqliq bilan tutashtirishimiz mumkin. Jami nuqtalar n ta bo'lgani sababli, masala shartini qanoatlantiradigan to'g'ri chiziqlar soni $n(n - 1)$ ta bo'lishi kerak. Ammo bunday sanashda biz har bir to'g'ri chiziqliqni ikki marta sanab chiqqanimiz bois n ta nuqtalarning turli juftliklaridan jami bo'lib $\frac{n(n - 1)}{2}$ ta to'g'ri chiziqliq o'tishini hosil qilamiz.

Javob. $\frac{n(n - 1)}{2}$.


2. n ta to'g'ri chiziqlar eng ko'pi bilan nechta nuqtada kesishishi mumkin?

Yechilishi. Ravshanki, n ta to'g'ri chiziqlarning kesishish nuqtalari soni eng katta bo'lishi uchun quyidagi holat bo'lishi kerak (rasmga qarang).

1) Har bir to'g'ri chiziqliq qolgan to'g'ri chiziqlardan har biri bilan kesishadi.

2) Hech qanday uchta to'g'ri chiziqliq bitta umumiy nuqtaga ega emas.

Bu holatda har bir to'g'ri chiziqliq qolgan to'g'ri chiziqlar bilan $n - 1$



ta kesishish nuqtaga ega. Oldingi masaladek, jami bo'lib $\frac{n(n-1)}{2}$ ta nuqtaga ega bo'lamiz.

Javob. $\frac{n(n-1)}{2}$.

3. Bitta nuqtada kesishadigan n ta to'g'ri chiziq tekislikni nechta qismga ajratadi?

Javob. $2n$.

4. n ta o'zaro kesishadigan to'g'ri chiziqlardan hech qaysi uchasi umumiy nuqtaga ega bo'lmasa, tekislikni nechta qismga ajratadi?

Yechilishi. Bir nechta berilgan to'g'ri chiziqqa bittasini qo'shsak tekislik qismlari nechtaga ko'payishini aniqlaymiz. Masalan, ikkita o'zaro kesishadigan to'g'ri chiziqqa uchinchi to'g'ri chiziqni qo'shsak, mavjud to'rtta tekislik qismlardan uchasi yangi to'g'ri chiziq bilan teng ikkiga bo'linadi. Demak, hosil bo'lgan tekislik qismlari soni $7 = 4 + 3$ ga teng bo'ladi.

Umumiy holda, $n - 1$ ta to'g'ri chiziqqa n to'g'ri chiziqni qo'shsak, mavjud tekislik qismlaridan $n - 1$ tasi yangi to'g'ri chiziq bilan teng ikkiga bo'linadi. Shuning uchun yangi hosil bo'lgan tekisliklar qismlari soni n ga ko'payadi. Demak, n ta o'zaro kesishadigan to'g'ri chiziqlardan hech qaysi uchasi umumiy nuqtaga ega bo'lmasa, tekislik

ni $4 + 3 + \dots + n = \frac{(n+1)n}{2} + 1$. ta qismga ajratadi.

Javob. $\frac{(n+1)n}{2} + 1$.

5. n ta aylana eng ko'pi bilan nechta kesishish nuqtaga ega bo'lishi mumkin?

Yechilishi. Ravshanki, n ta aylanalarning kesishish nuqtalari soni eng katta bo'lishi uchun quyidagi holat bo'lishi kerak (rasmga qarang).




1) Har bir aylana qolgan aylanalardan har biri bilan kesishadi.

2) Hech qanday uchta aylana bitta umumiy nuqtaga ega emas.

Bu holatda har bir aylana qolgan aylanalar bilan $2(n - 1)$ ta kesishish nuqtadaga ega. Demak, jami bo'lib $n(n - 1)$ ta nuqtaga ega bo'lamiz.

Javob. $n(n - 1)$



6. n ta aylanadan har biri qolgan aylanalardan har biri bilan kesishib, bunda hech qanday uchta aylana bitta umumiy nuqtaga ega emas bo'lsin. Bu aylanalar tekislikni nechta qismga ajratadi?

Yechilishi. Bir nechta berilgan aylanaga bittasini qo'shsak tekislik qismlari nechtaga ko'payishini aniqlaymiz. Masalan, ikkita o'zaro kesishadigan aylanaga uchinchi aylanani qo'shsak, mavjud to'rtta tekislik qismlari yangi to'g'ri chiziq bilan teng ikkiga bo'linadi. Demak, hosil bo'lgan tekislik qismlari soni $8 = 4 + 4$ ga teng bo'ladi. Endi shu uchta aylanaga to'rtinchisini qo'shsak mavjud oltita tekislik qismlari yangi to'g'ri chiziq bilan teng ikkiga bo'linadi. Demak, hosil bo'lgan tekislik qismlari soni $14 = 8 + 6$ ga teng bo'ladi.

Umumiy holda, $n - 1$ ta to'g'ri chiziqqa n to'g'ri chiziqni qo'shsak, mavjud tekislik qismlaridan $n - 1$ tasi yangi to'g'ri chiziq bilan teng ikkiga bo'linadi. Shuning uchun yangi hosil bo'lgan tekisliklar qismlari soni $2(n - 1)$ ga ko'payadi. Demak, n ta o'zaro kesishadigan to'g'ri chiziqlardan hech qaysi uchtasi umumiy nuqtaga ega bo'lmasa, tekislikni

$4 + 4 + 6 + \dots + 2(n - 1) = 2(2 + 2 + 3 + \dots + (n - 1)) = n(n - 1) + 2$ ta qismga ajratadi.

Javob. $n(n - 1) + 2$

7. n -burchak nechta diagonalga ega?

Yechilishi. Ko'pburchak uchlarini $A_1, \dots, A_n$ deb belgilaymiz. A_1 nuqtadan 3 ta diagonal o'tadi. Demak, n ta nuqtadan $\frac{n(n-3)}{2}$ ta diagonal o'tadi.


Javob. $\frac{n(n-3)}{2}$.

8. Diagonallar soni tomonlari soniga teng bo'lgan ko'pburchaklar mavjudmi?

Yechilishi. $\frac{n(n-3)}{2} = n$, tenglikdan $n = 5$ ekanligi kelib chiqadi.

Javob: Ha.

9. To'g'ri chiziq uchburchakning barcha tomonlarini kesib o'ta oladimi?



Yechilishi. Geometriya aksiomalariga ko'ra har bir to'g'ri chiziq tekislikni yarim tekislikka bo'ladi. Bunda agar ikki nuqta tekislikning turli yarim tekisliklarga tegishli bo'lsa, u holda ularni tutashtiruvchi kesma shu to'g'ri chiziq bilan kesishadi. Agar ikki nuqta tekislikning bitta yarimtekislikka tegishli bo'lsa, u holda ularni tutashtiruvchi kesma shu to'g'ri chiziq bilan kesishmaydi.

To'g'ri chizig'imiz ABC uchburchakni AB va AC tomonlarini kesin. Bu holda A va B nuqtalar turli yarimtekisliklarida yotadi. A va C nuqtalar ham bu to'g'ri chiziqdan turli yarimtekisliklarda yotadi. Shuning uchun B va C nuqtalar bitta yarimtekislikda yotadi va BC kesma bu to'g'ri chiziq bilan kesishmaydi.

Javob: yo'q.


10. To'g'ri chiziq to'rtburchakning barcha tomonlarini kesib o'ta oladimi?



Javob: Ha. Rasmga qarang.

11. To'g'ri chiziq to'rtburchakning barcha tomonlarini kesib o'ta oladimi?

a to'g'ri chiziq $ABCDE$ beshburchak AB , BC , CD va DE tomonlarini kessin (rasmga qarang). a to'g'ri chiziq AE tomonni kesa olmasligini ko'rsatamiz. Haqiqatdan ham, A va B , B va C , C va D , D va E nuqtalar a to'g'ri chiziq hosil qilgan turli yarimtekisliklarda yotadi. Demak, A va E nuqtalar a to'g'ri chiziq hosil qilgan bitta yarimtekislikda yotadi. Shuning uchun AE kesma a to'g'ri chiziq bilan kesishmaydi.



Javob: yo'q.

Adabiyotlar:

1. Matoušek, Jiří. Lectures on discrete geometry. – Berlin: Springer, 2002.
2. Vladimir Boltyanski, Horst Martini, Petru S. Soltan,. Excursions into Combinatorial Geometry. – Springer, 1997.
3. В.Г. Болтянский, И.Ц. Гохберг, Теоремы и задачи комбинаторной геометрии. М., Наука, 1965. 108 с.

TAROZI VA OG'IRLIK O'LCHOVLARINING TAKOMILLASHISHIDA OSIYO OLIMLARINING QO'SHGAN HISSALARI

*F.M.Sultonova, Andijon mashinasozlik instituti
tayanch doktoranti.*

Maqolada tarozilarning paydo bo'lishi va shakllanishida O'rta Osiyo olimlarining hissasi hamda tarozining takomillashish tarixi tahliliy hamda uzviy bayon qilinadi. Shuningdek, tarozi turlari va ularning xarakteriskalari qiyosiy keltiriladi.

Kalit so'zlar: tarozi, bezmenlar, yelkali tarozilar, tortish chegarasi, tortish hatoligi.

В статье описывается вклад ученых Центральной Азии в возникновение и формирование весов и история развития весов. Также приводятся типы и сопоставительные характеристики весов.

Ключевая слова: весы, безмены, коромысловые весы, границы взвешивания, ошибка взвешивания.

The article describes the contribution of Central Asian scientists to the origin and formation of scales and the history of development of scales..

Key words: scales, steelyards, beam scales, weighing limits, weighing error.

Har bir o'quvchi tabiiy fanlarni o'rganishda albatta jismning mas-sasi yoki vazni(og'irligi) va uni o'lchash muammosiga duch keladi. Bu muammoda ular albatta tarozi bilan tanishadilar va ularda ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishi talab qilinadi. Shuningdek, uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida o'quvchilar tarozilarning ishlash prinsipi, uning kashf qilinish tarixi, tarozi turlari bilan tanishish imkoniyatiga deyarli ega emaslar. Chunki darsliklarda bu mavzularga deyarli ahamiyat berilmagan va fizika tarixi o'quv qo'llanmasi yaratilmagan.



Faqat (marhum) taniqli pedagog T.Usmonovning fizika faniga qoʻshimcha uslubiy qoʻllanmasida al-Xoziniy va al-Beruniylarning tarozilari haqida qisqacha umumlashgan maʼlumotlar berilgan. Shu sababli ushbu maqolada tarozi, uning kashf qilinish tarixi mukamallashtirilishi, turlari, oʻlchash imkoniyatlari bayon qilinadi [1].

Tarozi - bu jismning massasini (vaznini) unga taʼsir etuvchi ogʻirlik kuchi asosida aniqlashga imkon beruvchi asbobdir. Uning kashf qilinishi va takomillashish tarixi juda chalkash va murakkabdir [2-4]. Qadimiy tarozi Qadimiy Bobilda miloddan avval 2,5 ming yillikda va Misrda miloddan avval 2 mingginchi yillikda paydo boʻlgan deb hisoblanadi.



1-rasm. Bezmen deb nomlangan tarozi

Soʻngra bir yelkali tarozi takomillashib, e.a. XVII asrda Xitoyda keng qoʻllanilgan (Shi Xuang Tu davrida). Shuningdek, e.a. 1250-yillarda tarozi va uning qoʻllanilishi jarayoni aks ettirilgan papirusdagi rasmi arxeologlar tomonidan topilgan va ular Mesopatamiyada qoʻllanilgan. Shu jumladan e.a. 1000-yillarda qoyalarda (Sharqiy Tur-

kiyada) aks ettirilgan tarozining tasvirlari mavjud (Bezmen deb nomlangan tarozi 1-rasm) [3].

E.a. VIII asrda Rim imperiyasi davridagi Isroil yerlarida takomillashgan bir yelkali tarozi-bezmenlar boʻlgani aniqlangan. Bu tarozini Rimliklar – biz kashf etganmiz deb davo qiladilar. Bu tarozida osish ilgakli-nuqtasi, yukni osish ilgakli nuqtasi – ilgaki doimiy boʻlib tarozi yelkasi shkalalangan boʻlib, tarozi toshi yelka boʻylab siljiydigan boʻlgan (2-rasm). E.a. VI-V asrlarda Mesopatamiyada Ura marosida ham bir yelkali tarozilar – bezmenlar keng qoʻllanilishi tarix asarlarida bayon qilingan.



2-rasm. Bir yelkali tarozi

E. a. IV asrda Aristotel tomonidan momentlar qoidasining kashf qilinishi ikki yelkali tarozilarning kashf qilinishiga asos bo'ldi va yuqorida zikr qilingan yerlarda ikki pallali tarozi yasash g'oyalari paydo bo'la boshladi [3].

IX asr boshlarida richagli tarozini arablar Pribaltikaga olib borishgan, X-XI asrlarda Qadimgi Rusiyaga ham keng tarqalgan. Lekin shuni aytish joizki, bir yelkali richagli tarozi – bezmenlar XV-XVI asrlargacha keng qo'llanilgan.


Ammo ikki elkali tarozi ham Qadimgi Vavilon va Misrda paydo bo'lgan ma'lumotlar bor va bu ma'lumotlarni tarozining Gizadagi piramidalaridagi tasvirlari tasdiqlaydi [3].

Tarozilar faqat jismlarning massasi (vazni)ni o'lchash uchun qo'llanilibgina qolmay, balki boshqa maqsadlarda ham qo'llanilgan. Masalan: Arximed tojining sof oltindanligi yoki unga kumush qo'shilganligini aniqlashda qo'llanilgan. U avval tojni havoda, keyin suvda tortib ko'rgan. So'ngra tojning havodagi massasiga teng sof oltinni tortib, so'ngra uni suvga tushirib tortgan. Tarozi yelkasidagi toshning ikki holdagi vaziyatlarini taqqoslab, tojga kumush qo'shilgan yoki qo'shilmaganligini aniqlagan.

XI asrda mashhur astronom, matematik shoir hisoblangan Umar Hayyom (1040-1123 y) gidrostatik tortish usulini mukammal ishlab chiqdi. U jismning havodagi massasi, suvdagi massasi va ular orasidagi farqni hisobga olgan holda jismning zichligini aniqlash metodini kashf etdi hamda Arximed usulini takomillashtirdi. Shuningdek, oltinning havodagi og'irligi bilan suvdagi og'irligini nisbati 11:10 ga tengligini, kumush uchun bu nisbat 10,5:10 ga tengligini aniqladi. 10,75:10 nisbatga ega bo'lgan qotishmaning tarkibini ikki usulda aniqladi: Nisbatlar nazariyasi yordamida va algebra hamda "almukobil" usulida ("almukobil" tenglikning ayrim qismlaridagi qo'shiluvchilarni qisqartirish usuli)). Shuningdek, oltin va kumushlarning nisbatan tarkibini ko'rsatuvchi diagramma tuzgan deb qarash mumkin [5].



Davrning amaliy talablari hamda halqaro savdoni va uning yo'lida bo'lgan muammolari tarozini mukammallashtirishga bo'lgan talabni kuchaytirdi. Ayniqsa O'rta Osiyoda Sind Ibn Ali, Yuxan ibn Yusuf, Ahmad ibn Al Buxoriy, ar-Roziy, al-Xoziniy, al-Beruniy kabi olimlarning og'irlik va uni aniqlashga doir ijodlari katta ahamiyat kasb etdi. Ularning ko'pchilik asarlari bizgacha yetib kelmagan. Faqat al-Xoziniyning "Donolik tarozisi" asari bizga davr to'laligicha saqlanib qolgan. Uning bu asari 1121 yilda yozilgan bo'lib, 8 ta maruza, 49 ta bob va 171 bo'limdan iborat bo'lib, unda mavjud tarozilarga tavsif berib, Arximedning gidrostatik qonunlari yoritilgan hamda jismning og'irligini o'lchash muammolari bayon qilingan [5].



3-rasm. Al-Xoziniyning fizikaviy tarozisi

Al – Xoziniy o'zining asarida 3 xil tarozini tuzilishi va uning sxematik ko'rinishlari bayon qilingan. 1-xil tarozi eng sodda bo'lib, u Arximed tarozisining o'zi desak ham bo'ladi (3-rasm). Unda tarozi pallalari qo'zg'almas bo'lib, reyter vaziyati o'zgaruvchan bo'lgan.

Ikkinchi xil tarozi Muhammad ibn ar-Roziy tomonidan ishlab chiqilgan tarozining 3-rasm tuzilishiga aynan o'xshaydi. U somoniylar dinastiyasi hukmron bo'lgan davr (IX-X asr) da yaratilgan bo'lib, bu tarozini al-Xoziniy "fizikaviy tarozi" deb ataydi. Bu tarozi Arximed tarozisidan birinchidan unda reyter yo'q, ikkinchidan bitta pallasining vaziyati o'zgaruvchandir. Uchinchidan bu tarozida uning vaziyatini ko'rsatuvchi strelkasi – "tili" mavjud [7-6].

Al-Xoziniy o'zining kitobida tarozidan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalari bayon qilingan. Shuningdek, tarozini tortish aniqligini oshirish uchun uning yelkasi uzunligini oshirish kerakligi ta'kidlangan. Masalan, uning uzunligi 4 ta tirsak uzunligi, ya'ni taxminan 2 metrgacha

uzaytirish taklifini beradi (bir tirsak taxminan 50 sm). Lekin bunday uzun yelkani yasashda uning massasi hamda ko'ndalang kesim yuzasi ortishi tarozining sezgirligini kamaytirishga olib keladi. Bu esa ikki pallali (yelkali) tarozining sezgirligi haqidagi nazariyaning bo'lganligi, ular to'g'risida tasavvur yo'qligidan dalolat beradi [7,8].

Shuningdek, "Donolik tarozi" asarida Abu Rayhon al-Beruniyning (1073-1048 y.) jismlarning og'irligi va solishtirma og'irligi (zichligi) ni aniqlash bo'yicha tadqiqotlari keltirilgan. Al-Beruniy al-Xoziniyning tarozisining tortish aniqligi yanada oshirdi. Buning uchun toshlarni-girlarni tarozi pallasiga qo'yib, ilgaksimon yuklarni darajalangan tarozi yelkasiga ilib qo'yish yo'li bilan tarozini muvozanat vaziyatiga aniq erishishiga muvaffaq bo'lgan. Bu vaziyatni aniq ko'rish uchun tarozi tili strelkasini uzunroq yasagan. Al-Xoziniy va Al-Beruniyning tarozida tortish aniqligini yuqoriligi, ularning tarozida havoda va suvda tortish, jismning hajmini aniqlash natijasida 50 dan ortiq jism va moddalarning aniqlangan solishtirma og'irliklari (zichliklari)ning qiymatlari hozirgi zamonda aniqlangan qiymatlariga juda yaqinligidan ko'rinib turadi. Shuningdek, Al-Beruniy jismlarning hajmini o'zi ishlab chiqqan asbob yordamida o'lchashda, jismning ho'llanish va xo'llanmaslik xollarining o'lchash aniqligiga ta'sirini o'rgandi [4].

"Bunday usullar va tarozilar g'arbda ham bo'lgandir, lekin u haqida al-Xoziniydek mukammal yozib qoldirilmagan" deydi tarixchi olim Y.G.Dorfman [1].

Yana bir bor eslatib o'tganimizdek, tarixdan tarozilar va ularning keng andozalari IX-X asrlarda Pribaltika va Shimoliy Rus davlatlariga arablar olib borishgan.

Texnika va texnologiyaning rivojlanish natijasida quyidagi tarozi turlari ishlab chiqildi:

1. Richagli-bezmen. 2.Richagli obkashli. 3.Ilgakli va pallali. 4. Pallali. 5. Hidrostatik. 6.Prujinali. 7.Tarelkali. 8.Gidrovik 9.Analitik 10.Elektrometrik. 11.Burilma tarozi. 12. Tokli tarozi. 13. Kulon tarozisi. 14.Elektron tarozi.




Tarozilarning turlari, vazifalari, tuzilishlaridan qat'iy nazar ularning quyidagi xarakteristikalar mavjud:

1. Yo'l qo'yiladigan (chegaraviy) meyor;
2. Yo'l qo'yiladigan o'lchash xatoligi;
3. Yo'l qo'yiladigan variatsiya - tortish kattaligini qayta-qayta tortishda ayon bo'lishi;
4. Sezgirligi;
5. Hisoblash shkalasining birlik qiymati;
6. O'lchash shkalasi bo'yicha hisoblash aniqligi;
7. O'lchash tezligi;

Hozirgi zamonda barcha sohalarda qo'llanilayotgan tarozining o'lchash sohalari va ularning aniqlik darajalarining integrallashgan tasviri 5-rasmda keltirilgan [2].

4-rasm. Tarozilarning o'lchash sohalari va o'lchash xatoligini o'lchanuvchi yuk miqdoriga bog'liqligi: 1-burilma kvars tarozilari, 2- burilma va torsion metall simli tarozilar, 3- teng yelkali tarozilar, 4- teng bo'lmagan yelkali tarozilar, 5-prujinali tarozilar.



4-rasm. Tarozilarning o'lchash sohalari

Bu yerda oxirgi 30 yillikda ishlab chiqilgan va sochiluvchan moddalarni o'lchashga mo'ljallangan va o'zbek olimlari tomonidan ishlab chiqilgan elektron tarozilarning xarakteristikalar ham kiritilgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, tarozining tortish aniqligi tarozi toshlarining qabul qilingan etalon tarozi toshlariga nisbatan aniqligi bilan tasvirlanadi. Tarozi toshlarining paydo bo'lishi, shakllanishi hamda ularni tayyorlanishi, takomillashishi, tarixi keyingi ishlarimizda yoritiladi.

Adabiyotlar:

1. Usmonov T. Fizika 6-9 sinflar uchun darslikka qo'shimcha. – Toshkent. 2002. 3-10 b.
2. Физический энциклопедический словарь. – Москва. Энциклопедия, 1960. 230-232 с.
3. Дорфман Я.Г. Всемирная история физики. М: Наука 1974. 62-65, 89-95 с.
4. Al-Beruniy. 1-tom Minerologiya 252-253 b. Toshkent: Fan-1975 y. 252-254
5. Ал-Хазини. Книга весов мудрости (Пер. М.М.Рожанский и И.С. Левиновой).- Научное наследство. Т.6.-М.: Наука, 1983. -С.15-140.
6. Usmonov T. Fizika o'qitishda Markaziy Osiyo olimlari meъrosidan foydalanish. Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertasiya. – Toshkent -2005.
7. Рожанская М.М., Левинова И.О. Ал-Хазинии и его “Книга весов мудрости”- Научное наследие. Т.6.- М.: Наука, 1983,- с 229-275.
8. Комилов Абдулхай. Физика ар-Рази и Ибн Сины.-М.:МГУ, 1999.-159 с.



TO‘RTBURCHAKNING YUZI

*A. Axmedov, Samarqand viloyat Urgut tuman
8-o‘rta umumta’lim maktabi*

Maqolada ixtiyoriy to‘rtburchakning yuzini hisoblash masalasi yoritilgan bo‘lib bunday masalalarni yechish usullari bayon qilingan.

Tayanch so‘zlar: *to‘rtburchakning yuzi, formula, tenglama daraja o‘rniga qo‘yish.*

В статье освещена задача вычисления грани произвольного четырехугольника и изложены методы решения таких задач.

Приведена некоторая информация о вычисления площадь четырёх угольника в том числе способы вычисления таких задач.

Ключевые слова: *площадь четырёх угольника, формула, уравнение, степени, комбинация.*

The article covers the issue of calculating the face of an arbitrary rectangle and describes the methods for solving such issues.

Key words: *the face of a rectangle, formulas, equation, degree replacement.*

Qavariq to‘rtburchaklar yuzasi o‘rta maktab kursida to‘g‘ri to‘rtburchakning yuzi parallelogrammning yuzi, rombning yuzi, trapetsiyaning yuzi misolida o‘rganiladi. Bu shakldan boshqa shaklda bo‘lgan qavariq to‘rtburchaklarning yuzini topish masalasi qo‘yilgan bo‘lsa, uning yuzi qanday topiladi? Mana shu savolga javob berishga harakat qilamiz. Buning uchun quyidagi teoremani isbotlashga harakat qilamiz.

Teorema: ixtiyoriy qavariq to‘rtburchakning yuzi

$$S = \sqrt{(p-a)(p-b)(p-c)(p-d) - abcd \cos^2 \frac{\alpha+\gamma}{2}} \text{ ga teng}$$

Bu yerda a, b, c, d -to'rtburchak tomonlari, p -to'rtburchak yarim perimetri, α va γ to'rtburchakning qarama-qarshi burchaklari.

Isbot. $AB=a$, $BC=b$, $CD=c$, $DA=d$, $\angle A=\alpha$, $\angle C=\gamma$ deb olamiz.

$\triangle ABD$ dan kosinuslar teoremasiga ko'ra BD tomon quyidagicha ifodalanadi

$$BD^2 = a^2 + d^2 - 2ad \cdot \cos \alpha$$

$\triangle BCD$ dan BD quyidagicha ifodalanadi.

$$BD^2 = b^2 + c^2 - 2bc \cdot \cos \gamma$$

Yuqoridagi ikki tenglikdan quyidagini yoza olamiz.

$$a^2 + d^2 - 2ad \cdot \cos \alpha = b^2 + c^2 - 2bc \cdot \cos \gamma$$

Bundan

$$a^2 + d^2 - b^2 - c^2 = 2ad \cdot \cos \alpha - 2bc \cdot \cos \gamma \quad (1)$$

$ABCD$ to'g'ri to'rtburchakning yuzi quyidagi ikki uchburchak yuzlari yig'indisiga teng.

$$S_{ABCD} = S_{ABD} + S_{BCD}$$

S_{ABD} va S_{BCD} yuzalari quyidagiga teng

$$S_{ABD} = \frac{1}{2}ad \sin \alpha, \quad S_{BCD} = \frac{1}{2}bc \sin \gamma$$

demak, to'rtburchakning yuzi


$$S = \frac{1}{2}ad \cdot \sin \alpha + \frac{1}{2}bc \sin \gamma$$

oxirgi tenglikning ikkala tomonini 4ga ko'paytiramiz

$$4S = 2ad \cdot \sin \alpha + 2bc \cdot \sin \gamma \quad (2)$$

(1) ni ikkala tomonini kvadratga ko'taramiz,

$$\begin{aligned} ((a^2+d^2)-(b^2+c^2))^2 &= (2ad \cdot \cos \alpha - 2bc \cdot \cos \gamma)^2 = (a^2+d^2)^2 - 2 \cdot (a^2+d^2)(b^2+c^2) + \\ &+ (b^2+c^2)^2 = (2ad \cdot \cos \alpha - 2bc \cdot \cos \gamma)^2 \\ (a^2+d^2)^2 - 2 \cdot (a^2+d^2)(b^2+c^2) + (b^2+c^2)^2 &= (2ad \cdot \cos \alpha)^2 - 2 \cdot 2ad \cos \alpha \cdot \end{aligned}$$



$\cdot 2bc \cos x + (2bc \cdot \cos x)^2 \cdot a^4 + 2b^2d^2 + d^4 - 2a^2b^2 - 2a^2c^2 - 2b^2d^2 - 2c^2d^2 + b^4 + 2b^2c^2 + c^4 = 4a^2d^2 \cdot \cos 2\alpha - 8abcd \cdot \cos \alpha \cdot \cos x + 4b^2c^2 \cdot \cos 2x$ (3) endi (2) ni ikkala tomonini kvadratga ko'taramiz

$$(4s)^2 = (2ad \cdot \sin \alpha + 2bc \cdot \sin x)^2$$

$$\text{Bundan } 16s^2 = 4a^2d^2 \sin^2 \alpha + 8abcd \sin \alpha \cdot \sin x + 4b^2c^2 \sin^2 x \quad (4)$$

(3) va (4) tengliklarni hadma-had qo'shamiz.

$$a^4 + 2a^2d^2 + d^4 - 2a^2b^2 - 2a^2c^2 - 2b^2d^2 - 2c^2d^2 + b^4 + 2b^2c^2$$

$c^2 + c^4 + 16s^2 = 4a^2d^2(\cos 2\alpha + \sin 2\alpha) - 8abcd \cdot \cos(\alpha + x) + 4b^2c^2 \cdot (\cos 2x + \sin 2x)$ yoki $a^4 + 2a^2d^2 + d^4 - 2a^2b^2 - 2a^2c^2 - 2b^2d^2 - 2c^2d^2 + b^4 + 2b^2c^2 + c^4 + 16s^2 = 4a^2d^2 - 8abcd \cdot \cos(\alpha + x) + 4b^2c^2$ bundan quyidagi kelib chiqadi:

$16s^2 = 2a^2d^2 + 2a^2b^2 - a^4 - d^4 + 2a^2c^2 + 2b^2d^2 + 2b^2d^2 + 2c^2d^2 - b^4 + 2b^2c^2 - c^4 - 8abcd \cdot \cos(\alpha + x)$ tenglikni o'ng tomoniga $8abcd$ ni ham qo'shamiz ham ayiramiz.

$16s^2 = 2a^2d^2 - a^4 - d^4 + 2a^2b^2 + 2a^2c^2 + 2b^2d^2 + 2c^2d^2 - b^4 + 2b^2c^2 - c^4 + 8abcd - 8abcd - 8abcd \cdot \cos(\alpha + x)$ tenglikni o'ng tomonidagi $2a^2d^2 - a^4 - d^4 + 2a^2b^2 + 2a^2c^2 + 2b^2d^2 + 2c^2d^2 - b^4 + 2b^2c^2 - c^4 + 8abcd$ o'rniga $(b+c+d-a)(c+d+a-b)(a+b+d-c)(a+b+c-d)$ ni qo'yamiz chunki bu ikki ifoda o'zaro teng:

$$16s^2 = (b+c+d-a)(c+d+a-b)(a+b+d-c)(a+b+c-d) - 8abcd(1 + \cos(\alpha + x))$$

$$\text{bundan } 16s^2 = (b+c+d-a)(c+d+a-b)(a+b+d-c)(a+b+c-d) - 16abcd \cdot$$

$$\cos^2 \frac{\alpha + x}{2}$$

Tenglikning ikkala qismini 16ga bo'lib yuboramiz :

$$\begin{aligned} S^2 &= \frac{(b+c+d-a)(c+d+a-b)(a+b+d-c)(a+b+c-d) - 16abcd \cos^2 \frac{\alpha + x}{2}}{16} = \\ &= \frac{b+d+c-a}{2} \cdot \frac{c+d+a-b}{2} \cdot \frac{a+b+d-c}{2} \cdot \frac{a+b+c-d}{2} - abcd \cdot \cos^2 \frac{\alpha + b}{2} = \\ &= \left(\frac{a+b+c+d}{2} - a \right) \left(\frac{a+b+c+d}{2} - b \right) \left(\frac{a+b+c+d}{2} - c \right) \left(\frac{a+b+c+d}{2} - d \right) - abcd \cdot \cos^2 \frac{d+x}{2} \end{aligned}$$



bu yerda $\frac{a+b+c+d}{2} = p$ yarim parametr deb olsak oxirgi quyidagi ko'rinishni oladi

$s^2 = (p-a)(p-b)(p-c)(p-d) - abcd \cdot \cos^2 \frac{d+\gamma}{2}$ Tenglikning ikkala tomondan kvadrat ildiz chiqaramiz:

$$s = \sqrt{(p-a)(p-b)(p-c)(p-d) - abcd \cdot \cos^2 \frac{d+\gamma}{2}} \quad (5)$$

teorema isbotlandi.

Agar to'rtburchak qarama-qarshi burchaklar yig'indisi o'zaro teng bo'lsa, ya'ni 180° bo'lsa u holda to'rtburchakning yuzi

$$s = \sqrt{(p-a)(p-b)(p-c)(p-d)} \quad (6) \text{ bo'ladi}$$

1. masala to'rtburchakning tomonlari 2 sm, 4sm, 5 sm, 7 sm $\angle A = 88^\circ$, $\angle C = 100^\circ$ bo'lsa, to'rtburchakning yuzini toping.

Yechish.

(5) formulaga ko'ra yechish uchun oldin yarim parametrni topamiz. $a=2$ sm, $b=4$ sm, $c=5$ sm, $d=7$ sm,


$$p = \frac{2+4+5+7}{2} = \frac{18}{2} = 9 \text{ demak, } p=9\text{sm}$$

endi to'rt burchakning yuzini topamiz.

$$\sqrt{(9-2)(9-4)(9-5)(9-7) - 2 \cdot 4 \cdot 5 \cdot 7 \cos^2 \frac{88+100}{2}} = \sqrt{280 - 280 \cdot \cos^2 94^\circ} = \sqrt{280 \cdot (1 - \cos^2 94^\circ)} = \sqrt{280 \cdot \sin^2 94^\circ} =$$

$$= \sqrt{280} \cdot \sin 94^\circ = \sqrt{280} \cdot \sin(90^\circ + 4^\circ) = \sqrt{280} \cdot \cos 4^\circ \approx 17 \cdot 0.9976 \approx 17 \cdot 1 = 17$$

Javob; $s \approx 17 \text{sm}^2$



(5) formulani qo'llashda $\angle A$ va $\angle C$ lar olingan edi. $\angle B$ va $\angle D$ olinganda ham shu natija chiqadi.

Mustaqil yechish uchun mashqlar.

1. Agar qavariq ko'p burchakning tomonlari 11sm, 14sm, 13sm, 18sm va $\angle A$ va $\angle C$ lar yig'indisi 174° bo'lsa, to'rtburchakning yuzini toping.

2. Qavariq to'rtburchakning yuzi $16,2\text{sm}^2$, tomonlari 3sm, 4sm, 5sm, 6sm bo'lsa, qarama-qarshi burchaklari yig'indisini toping.

Adabiyotlar:

1. Geometriya 8-sinf A.A.Rahimqoriyev, M.A.To'xtaxodjayeva, –Toshkent 2019 yil.
2. Matematika в школе №3. 1984, №5. 1989, №2. 1990 №2.
3. Ш. А. Алимов «Алгебра ва анализ асослари. 10-11-синф 1990 йил.
4. Математика в школе. 1982 -год. №3 1986 -год №2.
5. WWW.Algebra va analiz asoslari.uz.
6. www.matematika.uz.



FIZIKA, TEXNIKA VA TIBBIY ASBOBSOZLIKDAGI MUVAFFAQIYATLAR

*X.X.Tajiboyeva, TDPU dotsenti,
S. Qodirov, TDPU magistranti*

Maqolada fizika, texnika va tibbiy asbobsozlikdagi muvaffaqiyatlar hamda ularning bog'liqlik tomonlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: *fizika, texnika, tibbiy asbobsozlik, atom, molekula, bosim, molekulyar fizika, termometr.*

В статье рассматриваются достижения физики, техники и медицинской техники и их взаимосвязь.

Ключевые слова: *физика, инженерия, медицинские инструменты, атом, молекула, давление, молекулярная физика, термометр*

The article discusses the achievements in physics, engineering and medical equipment and their interrelationships.

Key words: *Physics, engineering, medical instruments, atom, molecule, pressure, molecular physics, thermometer*

Respublikamizda yuz berayotgan o'zgarishlar barcha sohani qamrab olmoqda. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan har bir chiqishlarida, jumladan 2020-yil 29-dekabrdagi murojaatnomasida fizika va chet tillarini o'rganishni ustuvor yo'nalish etib belgilalagan, davlatni rivojlantirish, halq farovonligini oshirish maqsadida qo'yilgan qadam, harakatlar strategiyasining bosh maqsadi xalq manfaatidir [1]. U besh banddan iborat bo'lib to'rtinchi bandi aynan ta'lim sohasiga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasining rivojlanish strategiyasi birinchi navbatda jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy qayta qurishning yo'nalishlari bilan belgilanadi. Yuqorida aytilgan chora-tadbirlarni muvaf-



faqiyatli amalga oshirish uchun aksariyat sohalarning negizida fizika asos hisoblanadi. Shu bois, hozirgi zamon tibbiyotining yutuqlari ko'p jihatdan fizika, texnika va tibbiy asbobsozlikdagi muvaffaqiyatlarga asoslangan. Kasalliklarning tabiati va sog'ayish mexanizmi ko'p hollarda biofizika tushunchalari asosida tushuntiriladi. Shuning uchun tibbiyot oliygohining o'quvchilari 1-kursdanoq "Tibbiy va biologik fizika" kursida fizika, texnik, biologik fizika va matematikadan umumiy holda maxsus bilimlarni egallaydilarki, bu fanlarning asosi fizika bo'lib, u tibbiy-biologik masalalarni hal qilishga yo'naltiriladi.

Biz quyida molekulyar fizika bo'limini o'qitishni va uni tibbiyot bilan bog'liq o'ziga xos tomonlarini tahlil qilamiz.

Ma'lumki, biologik organizmlar ochiq termodinamik sistema bo'lib, atrofidagi muhit bilan tinmay moddalar almashinib turadi. Fizik organizmning hujayra va to'qimalarda gazlar, suv va unda moddalarni o'tkaza oladiganligi uchun moddalar shu tariqa almashinish hodisasi o'tkazuvchanlik hodisasi deb yuritiladi.

Organizmnining butun hayot faoliyati shu xususiyatga bog'liq bo'lib, moddalarning hujayralari bilan to'qima suyuqligi o'rtasida tarqalishi biopotensiallar hosil bo'lishi va boshqalar o'tkazuvchanlik tufayli yuzaga keladi.

Tirik organizmlarda o'tkazuvchanlikni aniqlashning bir qancha usullari mavjud.

Osmotik usul.

1. Bo'yoqlar, shuningdek rangli indikatorlardan foydalanishga asoslangan usul.

2. Mikrokimyoviy analiz usuli.

3. Nishonli atomlar usuli.

4. Elektr o'tkazuvchanlik usuli.

Tibbiyotda fizika fani shunchalik chambarchas bog'liqki, inson tanasidagi har bir holat, harakat, klinik, biologik, fiziologik, inyeksion jarayonlar, reaksiya holatlari shular jumlasidandir.

Temperaturaning fiziologik holati: ideal gaz uchun molekulyar-kinetik nazariyaning asosiy tenglamasi oson o'lchanuvchi bosim, gaz



molekulalarining oʻrtacha kinetik energiyasi va konsentratsiyasi kabi mikroskopik parametrlari bilan bogʻlanish oʻrnatadi. Biroq gazning faqat bosimini oʻlchash orqali biz molekulalar kinetik energiyasining oʻrtacha qiymatini ham, ularning konsentratsiyasini ham alohida bila olmaymiz. Demak, gazning mikroskopik parametrlarini topish uchun molekulalarning oʻrtacha kinetik energiyasi bilish lozim, yaʼni biror fizik kattalikni oʻlchash kerak. Fizikada bunday kattalik boʻlib temperatura hisoblanadi.

Issiq va sovuq jismlar orasida kontakt oʻrnatilgandan bir qancha vaqt oʻtgandan soʻng jismlarning mikroskopik parametrining oʻzgarishi toʻxtaydi. Jismlarning bunday holati issiqlik muvozanati deyiladi.

Issiqlik muvozanati holatidagi jismlar sistemasining hamma qismlarida bir xil boʻlgan fizik parametr jismning temperaturasi deyiladi.

Temperaturaning fiziologik holat bilan tibbiyotning bogʻliqlik tomoni shundaki, fizikada biron-bir jismning yoki gazning holatlari kuzatilsa, tibbiyotda esa inson tana haroratining maksimal darajada koʻtarilishi va bu yomon holatlarga olib kelishiga sabab boʻladi. Termoregulyasiya — (issiqlikni boshqarish) odam organizmida tana haroratini doimiy tutib turadigan fiziologik jarayondir.

Tashqi muhitning yuqori harorati teridagi termoretseptorlarni taʼsirlantiradi, bunda teridagi kapillyar qon tomirlar reflektor ravishda kengayib, nafas tezlashadi. Natijada teri sathida issiqlik sochilishi, zoʻr berib chiqayotgan terning bugʻlanishi va kamroq darajada nafas yoʻllari shilliq pardasidan issiqlik sochilishi hamda suv bugʻlanishi hisobiga issiqlik ajralishi kuchayadi.

Yilning sovuq faslida zoʻr berib ajraladigan issiqlik oʻrniga jadal jismoniy ish bajarish, shuningdek kuchli ovqat berish yoki bir yoʻla har ikkalasini qilish yoʻli bilan qoplash mumkin.

Haroratning kun davomida bir necha gradusga oʻzgarishi, oksidlanish jarayonlarining yoki odam oziqlanishi bilan bevosita bogʻliqdir. Sogʻlom odamlarda harorat qayerda oʻlchanganiga qarab koʻrsatkichlar ham har xil boʻladi. Bular: ogʻiz boʻshligʻi, qin, toʻgʻri



ichak shilliq pardasining harorati, qoʻltiq va chov sohasining terisining haroratidan $0,2 \div 0,4^{\circ}\text{S}$ yuqoridir.

Normada tana haroratlari:

Bolalarda — $37 - 38,5^{\circ}\text{S}$;

Katta odamlarda — $36,5 - 37^{\circ}\text{S}$;

Keksalarda — $35,5 - 36,5^{\circ}\text{S}$.

Biroq haroratning fiziologik oʻzgarishlari nimalarga bogʻliq boʻlishidan qatʼiy nazar normadan 1°S dan oshmasligi kerak.



Termometrlar — kundalik hayotda temperaturani suyuqlikli termometrlar bilan oʻlchash keng tarqalgan. Suyuqlik termometrining tuzilishida suyuqliklarning isitilganda kengayish xossasidan foydalaniladi. Ishchi jism sifatida odatda simob, spirt, glitserin qoʻllaniladi. Jismning temperaturasini oʻlchash uchun termometr shu jism bilan kontaktga keltiriladi, jism va termometr orasida issiqlik muvozanati oʻrnatilguncha issiqlik oʻtkazish amalga oshiriladi. Termometrning massasi jismning massasidan ancha kichik boʻlishi kerak, chunki aks holda oʻlchash jarayoni jismning temperaturasini ancha oʻzgartirib yuborishi mumkin.

Jism bilan termometr orasidagi issiqlik almashinuvi toʻxtagan-da, termometrda suyuqlik hajmining oʻzgarishi toʻxtaydi. Bunda termometrda suyuqlikning temperaturasi jismning temperaturasiga teng boʻladi. Timpatik termometrlar — elektron asbob shaklida boʻlib, batareyalar yordamida ishlaydi va quloq nogʻora pardasining haroratini aniqlash uchun qoʻllaniladi.

Kimyoviy termometrlar — bir marta qoʻllashga moʻljallangan boʻlib, harorat oʻzgarganda oʻz rangini oʻzgartiradigan, issiqlikni sezuvchi kimyoviy moddalar bilan toʻldirilgan nuqtalar koʻrinishidagi ingichka plastik yassi parchalardir.

Elektron termometrlar — esa haroratni tez va aniq oʻlchashni taʼminlaydigan, bir marta ishlatib almashtiriladigan uchli maxsus termometrlar hisoblanadi.



Fizikada va tibbiyotda bosimning o'zni va ahamiyatini qarab chiqaylik. Masalan: ideal gaz bosimi – molekulyar-kinetik nazariya-ning birinchi va muhim shartlaridan biri gazning idish devorlariga beradigan bosimi hodisasini sifat va miqdor jihatdan tushuntirish edi. Gaz bosimini sifat jihatdan tushuntirish shundan iboratki, bunda ideal gaz molekullari idish devorlari bilan to'qnashganda elastik jism kabi mexanik qonunlar bo'yicha ular *bilan o'zaro ta'sirlashadi*.

Gazning molekullari juda ko'p va ular devorga birin – ketin katta tezlik bilan uriladi. Molekulalarning idish devoriga urilishida ayrim molekullar tomonidan ta'sir qiluvchi kuchlarning geometrik yig'indisining o'rtacha qiymati gazning bosim kuchi bo'ladi. Gazning bosimi F bosim kuchi modulining devor yuzi S ning nisbatiga teng:

$$p = \frac{F}{S}.$$

Tibbiyotda bosimning o'zni juda katta bo'lib, odam tanasidagi moddalar aylanishi, qon aylanishi, stres holatlarida kuzatiladi. Masalan: arterial bosim: sistola va diastola vaqtida tomirlar devoriga tushadigan qon bosimidir. Arterial bosim yurakdan o'tilib chiqadigan qon miqdoriga, qon oqimiga, umumiy periferik tomirlarning nechog'li qarshilik ko'rsatishiga, tomirlar devorining elastikligiga bog'liq. Sistolik (maksimal), diastolik (minimal) arterial bosim va puls arterial bosimi farqlanadi.

Sistolik (maksimal) bosim – arterial sistemada chap qorincha sistolasidan keyin paydo bo'ladigan, puls to'liqini maksimal ko'tarilgan vaqtidagi bosimdir.

Diastolik bosim – yurak diastolasi oxirida puls to'liqini tushgan vaqtda yuzaga keladi.

Arterial bosimni o'lchash – yurak tomirlari va nafas tizimi kasalliklarida qo'llaniladigan muhim tashxis hisoblanadi. Normada sistolik bosim 120 mm dan 140 mm gacha, diastolik bosim $70\text{--}90\text{ mm}$ simob ustuni atrofida o'zgarib turadi.

Arterial bosimni o'lchash moslamalari simobli sfigmomanometr (Riva- Rochchi) va prujinali bosim o'lchagich hisoblanadi. Riva-Roch-



chi apparati hozirda ishlatilmaydi. Ko'p hollarda prujinali apparat, ya'ni fonendoskop va tanometr yordamida o'lchanadi.

Bunda arterial bosim prujina qarshilik kuchi bilan o'lchanib, bu kuch millimetrli bo'linmalar bo'lgan siferblat bo'ylab harakatlanadigan strelkalarga o'tadi.

Apparat prujinali manometr, monjetka, nokcha – ballon va asbob qismlari o'zaro tuta bosim yelka arteriyasidan o'lchanib, bemor tinch holatda o'tirishi kerak. Chunki odam harakatlansa bosim kuchayib, normada chiqmaydi. Shunga o'xshagan fiziologik holatlar kuzatiladi.

Uning yechimi kasbni egallashda yordam beradigan fizikaning kasbiy mazmunidagi materiallarni har bir o'quv mavzusiga imkon qadar ko'proq kiritilishi mumkin. Masalan, tibbiyot kasb-hunar kollejlarining hamshiralik ishi, davolash ishi va farmatsiya yo'nalishlari uchun fizika darslarining fanlararo bog'lanishni tahlil etish mumkin. Tibbiyotda o'qitiladigan fanlardagi "Issiqlik o'tkazuvchanlik va odam tanasidagi issiqlik muvozanati", "Bug'lanish", "Qaynash", "Suyuqlik-ularning xossalari", "Qon bosimi haqida tushuncha", "Atmosfera bosimi va uning organizmga ta'siri", "Havoning namligi va uning inson salomatligi uchun ahamiyati" va boshqa mavzularni o'qitishda fizika fani bilan bog'lash muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, inson organizmi va unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni fizika, texnika va tibbiyot birgalikda bizga tushuntirib beradi. Shuning uchun ham fizikaning rivojlanishi va yutuqlarining tibbiyot sohasida qo'llanishi inson hayotida juda katta ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev S. M. Murojaatnoma 29-yanvar 2020-y.
2. Inomov Q.S. Hamshiralik ishi asoslari. Tibbiyot kollejlari uchun darslik. –Toshkent. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" DIN, 2007-y. 245 b.
3. G'aniyev A.G., Avliyoqulov A.K., Almardonova G.A. Fizika. AL va KHK lari uchun darslik. I qism. –Toshkent. O'qituvchi NMIU, 2008- y. 416 -b.
4. <https://en.wikipedia.org/wiki/Physics>



TRAPETSIYANING IKKINCHI O'RTA CHIZIG'I

*N. X. Qurbonov, Surxondaryo viloyati Boysun tumanidagi
10-IMI matematika o'qituvchisi*

Mazkur maqolada trapetsiyaning ikkinchi o'rta chizig'i to'g'risida ma'lumotlar berilgan va unga doir ba'zi masalalarni yechilishi ko'rsatilgan. Trapetsiyaning ikkinchi o'rta chizig'ini uning tomonlari bilan ifodalangan formulasi ham berilgan. Maqolada ko'rsatilgan ma'lumotlar darsliklarda uchramaydi.

Kalit so'zlar: trapetsiya, o'rta chiziqlar, yuza, diagonal, uch-burchak, perpendikulyar.

В данной статье дана информация о второй линии трапеции и решении некоторых задач. Дана формула её второй линии по сторонам трапеции. Данная информация этой статьи в учебниках не встречается.

Ключевые слова: трапеция, средняя линия, площадь, диагональ, треугольник, перпендикуляр.



This article provides information about the second midline of the trapezoid and shows the solution of some problems related to it. The formula for the second midline of a trapezoid, represented by its sides, is also given. The information presented in the article is not found in textbooks.

Key words: trapezoid, midlines, surface, diagonal, triangle, perpendicular.

Trapetsiyaning o'rta chizig'i tushunchasi 8-sinf geometriya darsligida berilgan. Trapetsiyaning yon tomonlari o'rtalarini tutash-tiruvchi kesma trapetsiyaning o'rta chizig'i deyiladi. Juda ko'pgina masalalar bu borada yechilgan. Trapetsiya asoslarining o'rtalarini tutashtiruvchi kesma, trapetsiyaning ikkinchi o'rta chizig'i deyiladi.



(1-chizma). Bu borada darsliklarda ma'lumot keltirilmagan. O'quvchilar trapetsiyaning ikkinchi o'rta chizig'i bilan tanishsalar va undan masala yechishda foydalansalar foydadan xoli bo'lmaydi.



Quyida bu borada keltirilgan masalalarni ko'rib chiqamiz. Trapetsiyaning o'rta chiziqlari uchun quyidagi fikrlar o'rinli. Ularni mustaqil isbotlang.

1. Trapetsiya o'rta chiziqlarining uchlarini ketma-ket tutashtirilsa, parallelogramm hosil bo'ladi.
2. Trapetsiyaning o'rta chiziqlari kesishish nuqtasida teng ikkiga bo'linadi.
3. Agar trapetsiyaning o'rta chiziqlari teng bo'lsa, uning diagonal-lari perpendikulyar bo'ladi va aksincha, agar trapetsiyaning diagonallari perpendikulyar bo'lsa, uning o'rta chiziqlari teng bo'ladi.
4. Agar trapetsiyaning o'rta chiziqlari perpendikulyar bo'lsa, bunday trapetsiya teng yonli bo'ladi va aksincha, agar trapetsiya teng yonli bo'lsa, uning o'rta chiziqlari perpendikulyar bo'ladi.
5. Trapetsiyaning o'rta chiziqlari o'zaro teng bo'lsa, trapetsiyaning o'rta chiziqlari uchlari bitta aylanada yotadi. [1].
6. Trapetsiyaning ikkinchi o'rta chizig'i uni ikkita tengdosh trapetsiyalarga ajratadi.
7. Trapetsiyaning yon tomonlari davom ettirilganda keshishgan nuqtasi va diagonallarining keshishgan nuqtasi ikkinchi o'rta chizig'i yotgan to'g'ri chiziqda yotadi.

Teorema. ABCD trapetsiyaning *BC va AD* asoslari ($BC < AD$), MN birinchi o'rta chizig'i KP ikkinchi o'rta chizig'i bo'lsin. Trapetsiyaning o'rta chiziqlari kvadratlari yig'indisi uchun quyidagi tenglik o'rinli. (2-chizma).

$$MN^2 + KP^2 = \frac{1}{2} (2BC \cdot AD + AB^2 + CD^2), \quad (1)$$

Isbot. Istalgan qavariq to'rtburchakning tomonlari o'rtalarini tutash-tirsak parallelogramm hosil bo'ladi. Parallelogrammning diagonallari kvadratlari yig'indisi uning hamma tomonlari kvadratlari yig'indisiga tengdir. U holda:

$$MN^2 + KP^2 = 2(MK^2 + MP^2) = 2\left(\frac{1}{4}AC^2 + \frac{1}{4}BD^2\right) = \frac{1}{2}(AC^2 + BD^2) \cdot \Delta ABD, \text{ uchun } BD^2 = AB^2 + AD^2 - 2 \cdot AB \cdot AD \cdot \cos A.$$

$$\Delta ACD, \text{ uchun } AC^2 = AD^2 + CD^2 - 2 \cdot AD \cdot CD \cdot \cos D.$$

Yuqoridagi tengliklarni hadma-had qo'shsak :

$$BD^2 + AC^2 = 2AD^2 + AB^2 + CD^2 - 2AD(AB \cos A + CD \cdot \cos D) \quad (2).$$

$$CF \parallel AB, \Delta CFD, FD = AD - BC = a - b.$$

$$CF = AB, CE \perp AD.$$

$$FE = CF \cdot \cos F = AB \cdot \cos A, ED = CD \cdot \cos D$$

$$FD = FE + ED = AB \cos A + CD \cdot \cos D$$

Yuqoridagi tengliklarni hisobga olsak, u holda

$$MN^2 + KP^2 = \frac{1}{2}(2AD^2 + AB^2 + CD^2 - 2AD \cdot FD) = \frac{1}{2}(2AD^2 + AB^2 + CD^2 - 2AD \cdot (AD - BC)) = \frac{1}{2}(2BC \cdot AD + AB^2 + CD^2).$$

Demak, (1)-tenglik to'g'ri ekan. Teorema isbotlandi. Trapetsiyaning asoslari $AD = a, BC = b$, ($a > b$) va yon tomonlari $AB = c, CD = d$ bo'lsin. U holda yuqoridagi teoremadan quyidagi



natijalar kelib chiqadi.

1-natija. Trapetsiyaning ikkinchi o'rta chizig'i KP uchun quyidagi formula o'rinli. $KP = \frac{1}{2}\sqrt{2c^2 + 2d^2 - (a-b)^2}$. (3).

Haqiqatan: (1) - tenglikka asosan:

$$\begin{aligned} KP^2 &= \frac{1}{5}(2BC \cdot AD + AB^2 + CD^2) - MN^2 = \\ &= \frac{1}{2}(2b \cdot a + c^2 + d^2) - \left(\frac{a+b}{2}\right)^2 = \frac{1}{4}(2c^2 + 2d^2 - (a-b)^2). \end{aligned}$$

Bundan,

$KP = \frac{1}{2}\sqrt{2c^2 + 2d^2 - (a-b)^2}$ tenglik kelib chiqadi. Mazkur formula darslik va o'quv qo'llanmalarda uchramaydi. (3)-formuladan ko'rinadiki, $ABCD$ trapetsiyaning ikkinchi o'rta chizig'i $\triangle CFD$ ning FD tomoniga tushirilgan medianasiga teng bo'lar ekan.

2-natija. Trapetsiyaning katta asosi hosil qilgan burchaklar yig'indisi 90° ga yoki kichik asosi hosil qilgan burchaklar yig'indisi 270° ga teng bo'lsa, uning ikkinchi o'rta chizig'i asoslari ayirmasini yarmiga teng bo'ladi.

Haqiqatan: $\triangle CFD$ uchun bo'lsa,

$\angle CFD + \angle CDF = \angle BAD + \angle CDA = 90^\circ$ bo'lsa $\angle FCD = 90^\circ$ bo'lib, $\triangle CFD$ to'g'ri burchakli uchburchak bo'ladi. U holda $c^2 + d^2 = (a-b)^2$ bo'lib, yuqoridagi (3)- formulaga asosan:

$$KP = \frac{1}{2}\sqrt{2(a-b)^2 - (a-b)^2} = \frac{a-b}{2}.$$

3-natija. To'g'ri burchakli trapetsiyaning ikkinchi o'rta chizig'i $\frac{1}{2}\sqrt{4c^2 + (a-b)^2}$ yoki $\frac{1}{2}\sqrt{3c^2 + d^2}$ ga teng bo'ladi.


Haqiqatan: $\triangle CDF$ uchun $\angle F = 90^\circ$ bo'ladi. Pifagor teoremasiga asosan: $d^2 = c^2 + (a-b)^2$ yoki $(a-b)^2 = d^2 - c^2$ tengliklar o'rinli bo'lib (3)-formulaga asosan, trapetsiyaning ikkinchi o'rta chizig'i $\frac{1}{2}\sqrt{4c^2 + (a-b)^2}$ yoki $\frac{1}{2}\sqrt{3c^2 + d^2}$ ga teng bo'ladi.

4-natija. Teng yonli trapetsiyaning ikkinchi o'rta chizig'i

$\frac{1}{2}\sqrt{4c^2 - (a-b)^2}$ ga teng bo'ladi.

Haqiqatan: (3)- tenglikka $c = d$ bo'lsa, bo'ladi.

$$KP = \frac{1}{2}\sqrt{2(c^2 + c^2) - (a-b)^2} = \frac{1}{2}\sqrt{4c^2 - (a-b)^2}$$



3-chizma

1-masala. ABCD trapetsiyaning yuzi S ga teng. M, K, N, P nuqtalar mos ravishda AB, BC, CD, AD tomonlarining o'rtalari bo'lsa, MKNP to'rtburchakning yuzini toping. (3-chizma).


Yechish. Yuqoridagi 1-fikrga asosan MKNP to'rtburchak parallelogrammdan iborat. $\angle PMK = \alpha$ bo'lsin. $MK \parallel AC$, $MP \parallel BD$ bo'lganligi sababli $\angle COD = \alpha$ bo'ladi. U holda

$$S_{MKNP} = MK \cdot MP \cdot \sin \alpha = \frac{1}{2} AC \cdot \frac{1}{2}$$


$$BD \sin \alpha = \frac{1}{2} \left(\frac{1}{2} AC \cdot BD \sin \alpha \right), S_{MKNP} = \frac{1}{2} S.$$

2-masala. Trapetsiyaning yuzi ikkinchi o'rta chizig'i hamda diagonal va ular orasidagi burchakning sinusini ko'paytmasiga tengligini isbotlang.

Yechish. Berilgan ABCD trapetsiya. KP-ikkichi o'rta chizig'i va AC diagonal orasidagi burchak φ bo'lsin. $S_{ABCD} = KP \cdot AC \cdot \sin \varphi$ ni isbotlaymiz. (4-chizma).



4-chizma



5-chizma

A va K, C va P nuqtalarni tutashtiramiz. $\triangle ACP$ va $\triangle PCD$ larda $AP = PD$. Bu tomonlarga tushirilgan balandliklar teng bo'lganligi sababli ular tengdoshdir. $\triangle ABK$ va $\triangle AKC$ lar ham tengdosh. Bundan:

$$S_{ABCD} = 2 \cdot S_{AKCP} = 2 \cdot \frac{1}{2} KP \cdot AC \cdot \sin \varphi$$

$$S_{ABCD} = KP \cdot AC \cdot \sin \varphi$$

3-masala. Trapetsiyaning yuzi ikkinchi o'rta chizig'i bilan bu o'rta chiziqqa (yoki uning davomidan) qarama-qarshi uchlaridan tushirilgan perpendikulyarlar yig'indisining ko'paytmasiga teng ekanligini isbotlang.

Yechish. Berilgan ABCD trapetsiya, KP- ikkinchi o'rta chizig'i bo'lsin. (5-chizma). $CE \perp KP$, $AQ \perp KP$,

$$S_{\Delta AKP} = \frac{1}{2} KP \cdot AQ, \quad S_{\Delta KCP} = \frac{1}{2} KP \cdot CE, \quad S_{ABCD} = \frac{1}{2} KP \cdot (CE + AQ)$$

ni isbotlash kerak.

$$S_{\Delta ABK} = S_{\Delta AKC}, \quad S_{\Delta ACP} = S_{\Delta PCD} \text{ ekanligidan}$$

$$S_{ABCD} = 2 \cdot S_{AKCP} = 2(S_{\Delta KCP} + S_{\Delta AKP}) = 2\left(\frac{1}{2} KP \cdot CE + \frac{1}{2} KP \cdot AQ\right) = KP \cdot (CE + AQ).$$

Adabiyotlar:

1. Дорофеев Г.В., Потапов. М.К., Розов Н.Х., «Пособие по математике для поступающих в вузы» –М. «Наука» 1968 г.
2. Журнал «Математика в школе »№2, 1993 г.
3. Шувалова Э.З., Агафонов Б.Г., Богатырев Г.И., «Повторим математику». Издательство «Высшая школа».– Москва 1969 г.



KOMPYUTER GRAFIKASI MAVZULARINI SIMULYATSIYA O'QITISH USULI ORQALI O'RGANISH

*M. T. Shodmonqulov, Q.Niyoziy nomidagi O'zPFITI tayanch
doktoranti*

Jahonda axborot texnologiyalari fanining fan va texnologiya rivojlanishi hamda jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'siridan kelib chiqib, fan-ni innovatsion texnologiyalar, didaktik materiallar va amaliy dasturlar imkoniyatlaridan keng foydalanib o'qitish, o'quvchilarda kreativlik fikrlashlarni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Kalit so'zlar: *simulyatsiya, imitatsion model, o'qitish usullari, metod.*

В связи с положительным влиянием информационных технологий на развитие науки и технологий и развитие общества в мире особое внимание уделяется преподаванию естественных наук с использованием инновационных технологий, дидактических материалов и приложений, развитию творческого мышления в студенты.

Ключевые слова: *имитация, имитационная модель, методика обучения, метод.*

In connection with the positive influence of information technology on the development of science and technology and the development of society in the world, special attention is paid to teaching natural sciences using innovative technologies, didactic materials and applications, the development of creative thinking in students.

Key words: *Simulation modeling, simulation model, teaching technique, method.*

Simulyatsiya o'qitish usuli nima? "Simulyatsiya" so'zi "Imitatsiya" so'zi bilan sinonim bo'lib, o'xshatish, taqlid qilish, obrazli ro'l o'ynash



degan ma'nolarni anglatadi. Simulyatsiya o'qitishda "Rollar o'ynash" orqali talabalarda qiziqish uyg'otadi. Ushbu ko'nikma o'qituvchilar va o'quvchilar tomonidan sinfda biron bir rolni oldindan tayyorgarlik-siz, ya'ni qo'shimcha mashg'ulotlarsiz yoki takroriy mashg'ulotlarsiz rol o'ynash orqali qo'llaniladi. Shunday qilib, simulyatsiya - bu rol o'ynashning bir shakli, degan xulosaga kelish mumkin, bunda o'quvchi-o'qituvchilar o'z-o'zidan ushbu mahoratni namoyish etadilar. Tabiiy fanlarda laboratoriya mashg'ulotlarini kompyuter imitatsion modellar yordamida amalga oshirishsak birinchidan vaqtdan yutamiz, ikkinchidan laboratoriya jarayoni xavfsiz o'tadi, uchinchi har safar aynan bir laboratoriya ishini takrorlaganimizda xarajatdan yutamiz ya'ni laboratoriyaga bir marta kompyuter imitatsion modellar yaratiladi va qayta-qayta foydalanamiz. Mikro olam va nano texnologiyalarning rivojida, meditsinada ichki organizm va qon tomirlardagi mikro hujayralarning harakatlarini o'rganishda ham kompyuter imitatsion modellarni o'rni beqiyosdir.

Ma'lumki o'qitish metodlarida texnik vositalarni qo'llash yuqori o'rinda turadi. Texnik vositalar yordamida o'quvchilarga berilayotgan o'quv materiallarining hajmini oshirib borish, zamonaviy fan yutuqlarini kiritib borish imkoniyati yaratiladi. Yaqin vaqtlargacha texnik o'qitish vositalari sifatida kino va televideniye ta'lim tizimida katta yutuq sifatida qaralar edi. Ammo hozirgi vaqtda o'quv jarayonida kompyuter asosida modellashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xuddi shunday kompyuter asosidagi imitatsion modellashtirish ham ta'lim tizimida muhim ahamiyatga ega [5].

Simulyatsiya qilingan o'qitish – bu o'qituvchilarni tayyorlash texnikasi Donald R tomonidan 1968-yil Cruickshankda ishlab chiqilgan. Bu rol o'ynash, sun'iy o'qitish, uchuvchi mashg'ulotlari, laboratoriya usuli, klinik usul va induktiv ilmiy usul kabi bir nechta atamalar bilan



belgilanadi. Bu hozirgi paytda AQSH, Rossiya, Hindiston va boshqa mamlakatlarda qo'llanilayotgan usullardan biridir, o'qituvchining xatti-harakatlarini o'zgartirish uchun simulyatsiya qilingan o'qitish sun'iy ravishda tashkil etilgan o'qituvchilarni o'qitish texnikasi, bunda o'qituvchi talabalarga rol o'ynash orqali san'at va texnikasini o'rgatishga yordam beradi. Simulyatsiyaning lug'aviy ma'nosi - bu o'zini ko'rsatuvchi harakat yoki jarayon yoki rol o'ynash. Bu ma'lum bir ko'rinishga yoki shaklga taqlid qilishning bir turidir.

D.G.Ryansning so'zlariga ko'ra (1964), «simulyatsiya - bu aniq tasavvur realistik vaziyat». Simulyatsiya o'qitish teskari aloqa mexanizmi sifatida belgilanishi mumkin o'quvchilarni o'qitishning sun'iy vaziyati sifatida o'z guruhlarida o'qituvchi rolini o'ynash orqali o'quvchi-o'qituvchilar orasida ma'lum maqsadga muvofiq xatti-harakatlarni vujudga keltirish jarayonidir [3].

Simulyatsiya turlari:

- Identity simulyatsiyasi: identifikatsiyani simulyatsiya qilishda haqiqiy tizim model sifatida ishlatiladi.
- Replikatsiya simulyatsiyasi: replikatsiya simulyatsiyasida, operatsion model tizimi odatdagi muhitda qo'llaniladi.
- Laboratoriya simulyatsiyasi: laboratoriya simulyatsiyasida takrorlash haqiqiy tizimning xususiyatlari namoyish etilgan laboratoriya.
- Kompyuter simulyatsiyasi: kompyuter simulyatsiyasi - bu haqiqatning mavxum tasviri kompyuter yordamida amalga oshirilgan tizim.
- Analitik simulyatsiya: analitik simulyatsiya matematik modellardan foydalanadi va analitik yo'l bilan yechim topishga urinadi.

Ta'lim metodikasining umumiy masalalarini ko'rib chiqib, kompyuter grafikasi sohasida xususiy didaktika masalalari, ya'ni "Kompyuter grafikasini o'qitish metodikasi" tushunchasini aniqlashtirish. Kompyu-



ter grafikasining zamonaviy maydoni ilmiy bilimlarning keng doirasi hisoblanadi, metodlarni, texnologiyalarni va asboblarni qamrab oladi, kompyuter ikki o'lchovli yaratish va turli xil uch o'lchamli tasvirlar shuningdek, kompyuter animatsiyasi, videomontajlar, interaktiv va animatsiya mahsulotlari va boshqalar. Kompyuter grafikasi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashda muhim bo'limlardan biri uch o'lchamli simulyatsiya va virtual reality elementlarini yaratishdir. Bugungi kunga kelib, uch o'lchamli kompyuter grafikasi bilan bog'liq jiddiy loyihalar-da siz to'rtta mutaxassisning sa'y-harakatlarini birlashtirishingiz kerak: ijodkor, dizayner, 3D modelchi va vizualizator [4].

Kompyuter imitatsion modellashtirish vositalari va ular asosida yaratilgan virtual resurslar (multimedia elektron darsliklari va virtual laboratoriyalari, kompyuter imitatsion modellar) o'quvchilarni o'qitishda hamda umumiy intellektual rivojlanishi uchun ulkan vosita hisoblanadi [6].


Simulyatsiya o'qitish usuli yordamida «Kompyuter grafikasining» RGB va CMYK rang modellari mavzusini o'rganamiz. Rang haqida umumiy tushuncha va kompyuter tizimlarida ranglarni taqdim etish usullarini o'rganish uchun avval ba'zi umumiy jihatlarni ko'rib chiqamiz. Rang – bu bizning yorug'lik nurlarini idrok etishimizning omillaridan biridir. Nur yoki rang bilan tadqiqotchilar azaldan qiziqib kelganlar. Bu sohadagi olamshumul yutuqlardan biri Isaak Nyutonning oq yorug'lik nurining tashkil etuvchi qismlarga ajratilishi bo'yicha 1666-yilda o'tkazgan tajribalaridir.

RGB tizimining qisqacha tarixi. Tomas Yung (1773—1829) uch dona fonar oldi va ularga qizil, yashil va ko'k yorug'lik filtrlari o'rnatdi. Shu tarzda ranglarga mos keluvchi yorug'lik nuri manbalari olin-di. Oq ekranga bu uch manbadan chiqqan nurni tovlantirib, olim mana shunday tasvirni oldi [1].



RGB rang modeli - biz ekranda ko'rgan narsalar. Bu monitor yoki raqamli kameralar kabi raqamli qurilmalarda rangni namoyish qilish uchun model hisoblanadi. Unda har bir rang asosiy ranglarning qiymatlari bilan kodlangan. Ushbu koordinata tizimining nol nuqtasi qora rangga ega va barcha uchta o'qlar bo'ylab maksimal qiymatlar oq rangni kodlaydi. Masalan, RGB da qanday qilib yorqin qizil rang ishlab chiqarilishini ko'rib chiqamiz. Bu yuqori R qiymatini va boshqa ikkita-sida past qiymatlarni talab qiladi.

RGB modelini rangli kub shaklida tasavvur qilish mumkin (1-rasm):



1-Rasm.

RGB modelining nomi Red – qizil, Green – yashil va Blue – ko'k birlamchi ranglarning bosh harflaridan olingan bo'lib, ushbu ranglarning turli proporsiyalarda aralashtirish natijasida Kompyuter imitatsion model yordamida ko'rinuvchi spektrning turli xil o'n olti milliondan ortiq boshqa ranglarini olish mumkin. Birlamchi ranglarning aralashmasidan ikkilamchi moviy (Cyan), pushti (Magenta) va Sariq (yellow) ranglar hosil bo'ladi.

RGB modelining tashkil etuvchilari 0 dan 255 gacha qiymat qabul qilishlari mumkin. $R=255$, $G=255$, $B=255$ bo'lganda oq rang, $R=0$, $G=0$, $B=0$ bo'lganda esa qora rang hosil qilishimiz mumkin. Kompyuter imitatsion model yordamida qizil yashil va ko'k ranglar kombinatsiyasidan qolgan ranglarni hosil qilishimiz mumkin.



2-rasm.

Nazariy jihatdan, hamma narsa juda oddiy ko'rinadi, ammo amalda RGB modelini qo'llashda kerakli rangni aniq yetkazish har doim ham mumkin emas. Birinchi muammo monitorlarni ishlab chiqarish texnologiyasi bilan bog'liq. Yuqorida aytib o'tilganidek, monitor tomonidan takrorlanadigan rang unga qo'llaniladigan fosfor turiga bog'liq. Ammo turli ishlab chiqaruvchilar turli xil fosfor turlaridan foydalanadilar. Chop etish uchun maketlarni yaratishda ham kompyuterda ishlash asosan RGB da amalga oshiriladi va faqat prepress tayyorlash bosqichida u boshqa CMYK modeliga o'tkaziladi.

CMYK rang modeli. Poligrafiyada asosiy professional grafik muharrirlarda standart bo'yicha taklif qilinuvchi eng ko'p tarqalgan rang modeli (Cyan, Magenta, Yellow, black - CMYK). Bu modelning nomi ko'p qatlamli chop etishda qo'llaniladigan 4 ta tiniq bo'yoqlardan kelib chiqqan. Nashriyotda chop etish vaqtida 4 ta bo'yoq uchun 1 ta klishedan foydalaniladi va qog'ozga ketma-ket har bir kliselarga berilib boriladi. Siyoh tiniq bo'lgani uchun ularni bir joyga berish mumkin va shu tarzda millionlab rang tuslari olinadi [2].



3-rasm.
$$I = \frac{\Delta q_2}{t_2} = \frac{q + q_2}{t_2}$$

CMYK rang modeli. Ushbu model to'rtta bosma siyoh aralashma siga asoslangan: Cyan (ko'k-yashil), Magenta (qirmizi), Yellow (sariq) va Key ("kalit" rang — qora) (3-rasm). Bosib chiqarishda ranglar diapazoni zamonaviy kompyuter monitorlariga qaraganda ancha tor. CMYK modeli elektron qurilmalarda ranglarning qog'ozga qanday o'zgarishini ko'rish imkonini beradi.

CMYK modeli bo'yoqlarning nurni yutish qobiliyatiga asoslangan. Oq rangning nur o'tuvchi bo'yoqdan o'tishida spektrning bir qismi yutiladi. Yutilmagan nur qaytadi va odam ko'ziga tushadi. Kompyuter imitatsion model yordamida ko'k-yashil, qirmizi, sariq va qora ranglar kombinatsiyasidan qolgan ranglarni hosil qilishimiz mumkin [7].

Tasvir ranglarini CMYK ranglariga ajratish uchun kompyuterlardan foydalaniladi va chop etish uchun maxsus modellar ishlab chiqilgan. RGB tizimidan CMYK tizimiga ranglarni o'zgartirishda bir qator qiyinchiliklarga duch keladi. Asosiy qiyinchilik shundaki, ranglar turli tizimlarda o'zgarishi mumkin. Ushbu tizimlar ranglarning xilma-xilligiga ega va biz monitor ekranida ko'rgan narsalar chop etish paytida hech qachon aniq takrorlanmasligi mumkin. Hozirda to'g'ridan

– to'g'ri CMYK ranglarida ishlashga imkon beradigan dasturlar mavjud. Vektorli grafik dasturlar allaqachon bunday imkoniyatga ega va bitmap grafik dasturlari yaqinda foydalanuvchilarga CMYK ranglari bilan ishlash uchun vositalarni taqdim eta boshladi va chop etilganda tasvir qanday ko'rinishini aniq nazorat qila boshladi.

Xulosa qilib aytganda, RGB va CMYK modellarning asosi bo'lgan rang parametrlarining barcha kombinatsiyalaridan tabiatda ko'p uchraydigan ranglarni hosil qilish jarayoniga kompyuter imitatsion modellar yaratilgan bo'lib, ularning hosil qilinish jarayonlari dinamik tarzda ko'rsatiladi va tushuntirib boriladi.

Texnika yo'nalishidagi Oliy ta'lim muassasalarida Axborot texnologiyalari fanining kompyuter grafikasi mavzulariga simulyatsiya o'qitish usuli yordamida kompyuter imitatsion modellar yaratish va ular asosida o'quv jarayonini tashkil etish uning samaradorligini oshirishga olib keladi.

Adabiyotlar:

1. Kompyuter grafikasi va web-dizayn: darslik // M.E. Mamarajabov, S.Q. Tursunov, L.M. Nabiulina; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — Toshkent: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2013. 376-b.

2. Sh.A.Nazirov, F.M.Nuraliyev, B.Z.To'rayev. Kompyuter grafikasi va dizayn. O'quv qo'llanma. - T.: «Fan va texnologiya», 2015, 256- bet.

3. Dr. Ajit Mondal// Simulated Teaching – Modification for Teacher Behaviour // Simulated Teaching Teacher Education, Sem-4 (Old) AM, 2020.



4. Т.В. Чернякова. Методика обучения компьютерной графике студентов вуза: дис.... кан. Пед. Наук : 13.00.02/Екатеринбург 2010. – 101 с.

5. Файзиев М.А. Талабаларнинг билим ва кўникмаларини компьютер имитацион моделлар асосида шакллантириш методикаси // Пед. фан. бўй. номзодлик дисс.- С., 2008.

6. Shodmonqulov M.T. Kompyuter imitatsion modellar asosida axborot texnologiyalari predmetini o'qitish // "Uzluksiz ta'lim ilmiy – uslubiy" jurnal 2021-y maxsus son, 71-75-betlar.

7. Shodmonqulov M.T. Kompyuter grafikasi mavzularini simulyatsiya o'qitish usuli orqali o'rganish // INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM: a collection scientific works of the International scientific conference (25th July, 2021) Washington, USA: "CESS", 2021. Part 8 – p. Page 33-38.



O'RTA UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILARNING FANGA OID KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA FIZIKA VA ASTRONOMIYA FANLARIDAN MASALA YECHISHNING AHAMIYATI

A. N. Ernazarov, Nizomiy nomidagi TDPU magistranti

Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida o'quvchilarning fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda fizika va astronomiya fanlaridan masala yechishning ahamiyati hamda masala yechish namunalari keltirib o'tilgan.

Ka'lit so'zlar: *fizika, astronomiya, innovatsiya, ta'lim, ob'yektiv, kompetensiya, masala yechish algoritmi, klassifikatsiya.*

This article discusses the importance of problem solving in physics and astronomy in developing the scientific competence of high school students, and provides examples of problem solving.

Key words: *physics, astronomy, innovation, education, goal, competence, problem solving algorithm, classification.*

В этой статье обсуждается важность решения задач по физике и астрономии в развитии научных компетенций учащихся средних школ, а также приводятся примеры решения задач.

Ключевые слова: *физика, астрономия, инновации, образование, цель, компетенция, алгоритм решения задач, классификация.*

Mamlakatimizda kadrlar tayyorlashning sifat bosqichi amalga oshirilayotgan bir davrda yoshlarimizda hurfikrlilik, mustaqil, aqliy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Shu sababli hozirgi zamon maktab o'quvchilarida mantiqiy fikrlash qobiliyatini kamol toptirish uchun zamin yaratish lozim. O'rta maktabda tabiat qonunlari, jumladan fizika fanini o'qitish o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni shakllantirishning eng muhim va dolzarb masalalaridan biridir.



Shu nuqtai nazardan, har qanday tabiiy fanlarning asosiy vazifasi, ob'yektiv olam qonunlarini o'rganishdan iborat. Qonun mazmunan predmet va hodisalar orasidagi ma'lum munosabat ularning bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lishi va shu bilan birga, qonun narsa va hodisalar o'rtasidagi sababiy, muhim, umumiy, zaruriy va takrorlanadigan bog'lanishdir.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining umumta'lim fanlari bo'yicha malaka talablarida umumta'lim fanlarini kompetensiyaviy o'qitishning bosqichlari belgilab berildi. O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida fizika, astronomiya fanini o'qitishning asosiy maqsadi:

➤ fizika ta'limining fan-texnika taraqqiyotida, ishlab chiqarish sohalari va hayotda tutgan o'rni haqida mantiqiy fikrlay olish qobiliyati, aqliy rivojlanishi, o'zini o'zi anglash salohiyatini tarkib toptirish, ularda milliy, umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish hamda ijtimoiy hayoti va ta'lim olishni davom ettirishlari uchun zarur bo'lgan bilimlarni egallashi, ulardan kundalik hayotlarida foydalanishga o'rgatish;

➤ o'quvchilarda tayanch va fizika faniga oid umumiy kompetensiyalarni shakllantirish;

➤ o'quvchilarning olamning fizik manzarasiga oid dunyoqarashini kengaytirish bilan amaliy faoliyatlarini bog'lagan holda fizik bilimlarni hayotga tatbiq eta olish salohiyatini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida fizika, astronomiya fanini o'qitishning vazifalari:

➤ o'quvchilarda atrof olamni o'rganishga ishonch tuyg'ularni hosil qilish, tabiatdagi jarayon va hodisalarni kuzatish, tahlil qilish, fizik hodisalarni o'rganishda asboblardan to'g'ri foydalana olish, fizik tushuncha



va kattaliklarni matematik formulalar bilan ifodalay olish, fan sohasida erishilayotgan yutuqlar, ularning amaliyotdagi tatbiqi orqali o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashlarini rivojlantirish, kelajakda insoniyatni fan va texnologiyalar yutuqlaridan to'g'ri foydalanishda fan va texnika ijodkorlariga hurmat bilan qarash, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrash umumbashariy madaniyat elementlarini tarbiyalashdan iborat.

Fizika fanidan o'quvchining kompetensiyasi – fizika fani bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik hayotida duch keldigan kashfiyotlar, ilmiy yangiliklarni tushunish, amaliy va nazariy masalalarni yechishda foydalanish va amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir.

Fizika fanining mazmunidan kelib chiqqan holda o'quvchilarda fanga oid umumiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi. Bu kompetensiyalarni shakllantirishda fizikadan masala yechishning ahamiyati katta hisoblanadi. Quyida fizikadan masala yechishning ahamiyati va uni qanday tartibda amalga oshirish bosqichlari va masala turlariga kengroq to'xtalib o'tamiz.

Fizika o'qitishda masala yechish muhim ahamiyatga ega. Masala yechish- fizika o'qitish jarayonining ajralmas qismi bo'lib, u fizik tushunchalarni shakllantirishga katta hissa qo'shadi, fizik fikrlarni rivojlantiradi, bilimni amalda qo'llash malakasini orttiradi. Fizika masalalarni yechish quyidagi hollarda keng qo'llaniladi:

- yangi axborotlar berishda;
- muommali vaziyat hosil bo'lish va o'quvchilarga muommo qo'yishda;
- amaliy malaka va ko'nikmalarni shakllantirishda;
- o'quvchilar bilimining mustahkamligi va chuqurligini sinashda;
- materialni mustahkamlab, umumlashtirish va takrorlashda;
- texnika yutuqlari bilan tanishtirishda va politexnik ta'lim berishda;
- o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda.

Masala yechish orqali o'quvchilarning mehnatsevarligi, sinchkovligi, mustaqil mulohaza yuritishi, o'qishga qiziqishi va xulqi, qo'yilgan maqsadga erishishdagi qat'iyligi tarbiyalanadi[1].




Fizikadan masala yechish o'quvchilarning dunyo qarashlarini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ularni olimlarning ishlari, fan texnikaning yutuqlari bilan tanishtirib boradi.

Masala yechish ko'p hollarda fizika darsligining tarkibiy qismi bo'lib keladi. O'qituvchi yangi mavzuni bayon qilishda va uni mustahkamlashda, o'tilganlarni takrorlashda, o'quvchilarning mustaqil ishlarida va bilimlarini sinab ko'rishda masala yechishdan foydalanadi.


Fizikaga qiziquvchi o'quvchilar bilan sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ham masalalar yechishadi, ular olimpiadaga tayyorlanadi. Olimpiadaga yechilishi qiyin va yangilik elementlarini o'z ichiga olgan masalalar tanlanadi.

Masala yechish - olingan nazariy bilimni amaliyotda qo'llashdir. Bu esa o'quvchilarning fizik tafakkurini (fikrlashini) rivojlantirishda, jumladan hodisalarni tahlil qilishda, ular haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirishda, o'xshash tomonlarini va farqini aniqlashda katta ahamiyatga egadir.




Masala yechish algoritmiga tegishli klaster





Masalalarni sinflashtirishga tegishli klaster



Masala yechish metodlari klassifikatsiyasi

O'qituvchi masala yechish orqali o'quvchilarni tarbiyalaydi, masalalarni mustaqil yechishga o'rgatadi.

Mazmuniga ko'ra masalalar mexanik, molekulyar fizika, elektr, optika, atom va yadro fizikasiga doir masalalarga bo'linadi. Bundan tashqari abstrak va konkret mazmunli masalalar ham mavjud. Abstrak masalalarning mazmuni umumiylikka ega bo'lib, hodisalarning mohiyatini ochib berishga qaratilgan. Konkret mazmunli masalalar esa amaliyot va o'quvchilarning hayotiy tajribalari bilan bog'langanligi uchun katta ko'rgazmalilikka ega. Konkret masalalar texnik mazmunli (politexnik ta'lim), tarixiy mazmunli (tarbiyaviy), qiziqarli mazmunli (qiziqishni uyg'otuvchi) masalalarga bo'linadi.



Masalalar shartiga ko‘ra matnli, eksperimental (tajribali), grafik va rasmi masalalarga bo‘linadi. Yechish usuliga ko‘ra esa, sifat, hisoblash, grafik va eksperimental masalalarga ajraladi. Sifat masalalarning mohiyati shundaki, ular hodisalarning fizik mohiyatini ochib berishga qaratilgan bo‘ladi. Hisoblash masalalari qo‘llanilishiga qarab, masalalarni yechish usullari arifmetik, algebraik va geometrik usullarga bo‘linadi.

Innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda o‘quvchilarga masalaning sharti, mazmunini tushuntirish va chizmalarni bevosita harakatlantirish orqali slayd yoki elektron darsliklar misolida ko‘rsatib berish o‘quvchilarda masala yechishga bo‘lgan qiziqishini va shu masalani tushunib olish darajasini yuqori bo‘lishini ta‘minlaydi. Quyida o‘quvchining fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan masala yechish namunasi keltirilgan.

Masala yechish namunasi:

1-masala. Yarimo‘tkazgichli diodning teskari tokini o‘lchash uchun rasmda keltirilgan sxema yig‘ilgan. Ulashdan oldin kondensator batareyaning to‘la kuchlanishigacha zaryadlangan. So‘ngra sxemaning “musbat” qutbi batareyaning “manfiy” qutbiga ulangan. Kalitni 1 vaziyatda 1 minut ushlab turib, keyin 2 vaziyatga ulangan. Bunda galvanometer strelkasi $n_1=5$ bo‘limga og‘gan. Kalitni 2 minut ushlab turib, takrorlangan, bunda galvanometer strelkasi boshqa tomonga $n_2=20$ bo‘limga og‘gan. Berilganlardan foydalanib va diodning teskari toki kuchlanishga amalda bog‘liq emas deb hisoblab, diodning tokini aniqlang[3].

Berilgan:

$U=4,5 \text{ V}$,

$C=10 \text{ mkF}$,


$t_1=1 \text{ min}$,

$t_2=2 \text{ min}$,

$n_1=5, n_2=20$.

Topish kerak:

I_0 - ?



Yechilishi. Dastlab kondensator $q=CU$ zaryad bilan zaryadlangani uchun kalitni 1 vaziyatga ulaganda u to'la razryadlanmagan. Kondensatorda qolgan zaryad kalitni 2 vaziyatga ulaganda galvanometrnin og'ishi bilan aniqlanadi: $q_1=DI_1Dt$. Bu yerda DI-galvanometrnin sezgirliigi. Shuning uchun yarimo'tkazgichli dioddan o'tgan tok

$$I = \frac{\Delta q_1}{t_1} = \frac{q - q_1}{t_1} \quad (1)$$

Kalitni 1 vaziyatga qaytadan ulaganimizda manbaning Dq_2 zaryadi kondensatorni batamom zaryadsizlaydi va uni avvalgiga nisbatan qarama-qarshi ishorali $q_2=DI_2Dt$ zaryad bilan zaryadlaydi. Shuning uchun bu safar dioddan o'tgan tok

$$I = \frac{\Delta q_2}{t_2} = \frac{q + q_2}{t_2} \quad (2)$$

bo'ladi. q , q_1 va q_2 ni (1) va (2) ifodalarga qo'ysak, $I = \frac{CU - n_1 \Delta I \Delta t}{t_1}$

va $I = \frac{CU + n_2 \Delta I \Delta t}{t_2}$ kelib chiqadi. Bu ifodalarni o'zaro tenglab,

$\Delta I \cdot \Delta t = \frac{CU(t_2 - t_1)}{n_2 t_1 + n_1 t_2}$ ni topamiz. Bu ifodani yuqoridagi ixtiyoriy ifodaga qo'yib, dioddan o'tayotgan teskari tokni topamiz:

$$I_0 = \frac{CU(n_2 + n_1)}{n_2 t_1 + n_1 t_2}$$

$$I_0 = \frac{4,5 \cdot 10^{-5} \cdot 25}{(20 \cdot 1 + 5 \cdot 2) \cdot 60 \text{ s}} \frac{Kl}{s} = \frac{4,5 \cdot 25 \cdot 10^{-5}}{30 \cdot 60} A = \frac{22,5}{36} \cdot 10^{-6} A = 0,625 \text{ mA}$$

Javobi: $I_0 = 0,625 \text{ mA}$



2-masala. Parallaksi $0'',751$ bo'lgan Toliman (α Sentavr) yulduzi masofasidan Quyosh qanday ko'rinadi?

Berilgan: $\pi = 0'',751$

Topish kerak: $m_{\odot} - ?$

Yechish: Bizga malumki Quyoshning absolyut yulduz kattaligi $M = +4,79$ ga teng. Biz absolyut yulduz kattaligini aniqlash formula-si orqali yulduzning ko'rinma yulduz kattaligini aniqlashimiz mumkin bo'ladi, ya'ni

$$m_{\odot} = M_{\odot} - 5 - 5 \lg \pi$$

$$m_{\odot} = +4,79 - 5 - 5 \lg(0,751)$$

$$m_{\odot} = 0^m, 41$$

Javob: Quyosh Toliman yulduzi masofasidan ko'rinma yulduz kattaligi $m_{\odot} = 0^m, 41$ ga teng [2].

O'ylaymizki fizika va astronomiya darslarida innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda masala yechish darslarini tashkil etish o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini kuchytiribgina qolmay o'rgangan bilimlarini amaliyotda qo'llay olishlarida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Ernazarov, A. N. (2021). O'rta umumta'lim maktablarida fizika va astronomiyani kasbga yo'naltirib o'qitishda tayanch va fanga oid kompetensiyalarning ahamiyati. Academic research in educational sciences, 2(4), 869-873.
2. G. I. Muxamedov, Sh. E. Nurmamatov, I. U. Sapayev. (2021). Umumiy o'rta ta'lim maktablarida astronomiyadan masalalar yechish usullari. Academic research in educational sciences, 02(01), 664-667.
3. Fizika. O'rta ta'lim muassasalarining 10-sinfi va o'rta maxsus, kasb hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik /N. Sh. Turdiyev, K. A. Tursunmetov, A.G.Ganiyev, K.T.Suyarov, J.E.Userov, A.K. Avliyoqulov. – T.: "Niso Poligraf" nashriyoti, 2017. – 176b.



MUNDARIJA

ILMIY-OMMABOP BO‘LIM

<i>N.R. Zaynalov, D. Qilichyev. Kriptografiyada matritsalarni ko‘paytirish usuli</i>	3
<i>T. T. Kalekeeva, G. Allambergenova. Дюфрант тенгламаларни ечишининг баъзи усуллари</i>	8

MATEMATIKA JOZIBASI

<i>S. A. Bekmetova, I. I. Ismailov, M. Otajanova. Shtols teoremasi va uning tadbirlari</i>	14
--	----

ILG‘OR TAJRIBA VA O‘QITISH METODIKASI

<i>Ш.Р.Кўқонбоева. Физика ўқитувчилари эгаллашилозим бўлган таянч компетенциялар</i>	24
<i>Р.Р.Шодиев, К.А. Турсунметов. Атом энергияси халққа хизмат қилади</i>	30
<i>Э.Х.Бозоров, Р.Турдиев. Лазерное излучение методикиобновления человеческой кожи</i>	38

OLIMPIADA VA MASALALAR YECHISH BO‘LIMI

<i>Masalalar va yechimlar</i>	45
-------------------------------------	----

TALAB, TAKLIF VA TAHLIL

<i>Sh. Ismailov, J. Sapparboyev. Tekislikdagi kombinatorika</i>	59
<i>F.M. Sultonova. Tarozi va og‘irlik o‘lchovlarining takomillashishida Osiyo olimlarining qo‘shgan hissalar</i>	65
<i>A. Axmedov. To‘rtburchakning yuzi</i>	72
<i>X.X. Tajiboyeva. Fizika, texnika va tibbiy asbobsozlikdagi muvaffaqiyatlar</i>	77
<i>N. X. Qurbonov. Trapetsiyaning ikkinchi o‘rta chizig‘i</i>	83
<i>M. T. Shodmonqulov. Kompyuter grafikasi mavzularini simulyatsiya o‘qitish usuli orqali o‘rganish</i>	90
<i>A. N. Ernazarov. O‘rta umumta‘lim maktablarida o‘quvchilarning fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda fizika va astronomiya fanlaridan masala yechishning ahamiyati</i>	99



Jurnalning ushbu sonini
tayyorlashda qatnashganlar:
Olimov B, Sharipov X., Mirsanov O’.
Kompyuterda sahifalovchi: Dadajanova M.

*O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligida
№ 0103 tartib raqami bilan ro‘yxatdan o‘tgan.*

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi Filologiya,
Pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha ekspert kengashi tavsiyasi
(21.04.2014. №4) va Rayosat qarori (30.04.2014. №205/3) ga asosan
fan doktori ilmiy darajasiga talabgorlar jurnallari ro‘yxatiga «Fizika,
matematika va informatika» jurnali kiritilgan.*

Tahririyat manzili:
Toshkent shahri, Bratislava ko‘chasi, 2-uy.
**T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy
tadqiqot instituti**

FIZIKA, MATEMATIKA va INFORMATIKA jurnali

Web-site: <http://uzpfiti.uz/uz2/fizika,matematika,informatika.htm>

E-mail: fizmat_jurnali@inbox.uz

Bosishga ruxsat etildi2021 y. Qog‘oz bichimi 60x84 $1/_{16}$.

Ofset bosma usulida bosildi. 6 bosma taboq.

Adadi nusxa. Buyurtma №

“KATARANT” MCHJ bosmaxonasi,
Toshkent shahri, Sh. Rustaveli ko‘chasi, 156 uy.

